



UDK: 634.8(575.1)

Gulbahor JO'RAYEVA,

Mustaqil tadqiqotchi, o'qituvchi, Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

E-mail: j.gulbakhor.ch@gmail.com, ORCID: 0009-0007-3028-9035

PhD, dotsent O.Isayev taqrizi asosida

VITICULTURE TRADITIONS IN CENTRAL ASIA AND UZBEKISTAN: A HISTORICAL ANALYSIS

Annotation

This article examines the historical development of viticulture traditions in Central Asia and Uzbekistan. Based on written sources, archaeological evidence, and scholarly literature, it analyzes the development of viticulture and its role in the region's economic and cultural life.

Key words: Central Asia, Uzbekistan, viticulture, agricultural history, Silk Road, historical sources.

ТРАДИЦИИ ВИНОГРАДАРСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье рассматриваются история формирования и развития традиций виноградарства в Центральной Азии и Узбекистане. На основе письменных источников, археологических материалов и научной литературы проанализированы особенности развития виноградарства, его роль в хозяйственной и культурной жизни региона.

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекистан, виноградарство, история сельского хозяйства, Великий шелковый путь, исторические источники.

MARKAZIY OSIYO VA O'ZBEKISTONDA UZUMCHILIK AN'ANALARI: TARIXIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo va O'zbekistonda uzumchilik an'analari shakllanishi va tarixiy rivojlanishi yoritilgan. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida uzumchilikning mintaq xo'jaligi va madaniy hayotidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, uzumchilik, qishloq xo'jaligi tarixi, Buyuk Ipak yo'li, tarixiy manbalar.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlardan biri bo'lib, tokchilik va vinochilik madaniyatining eng qadimiy markazlari qatoriga kiradi. Ushbu sohaning taraqqiyoti qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'd davlatlarida shakllangan rivojlangan dehqonchilik an'analari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston hududida tokchilik va uzumchilikning shakllanish tarixi qadimiy davrlarga borib taqalib, mintaqaning ko'p asrlik dehqonchilik madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, tok insoniyat tomonidan madaniylashtirilgan eng qadimiy o'simliklardan biri bo'lib, uning madaniy navlari taxminan 7 – 8 ming yil avval shakllangan[12]. O'rta Osiyo hududida tokchilikning qadimiy ildizlarga ega ekanligi arxeologik, yozma va tasviriy manbalar orqali tasdiqlanadi. Jumladan, qadimgi Shosh (Toshkent) hududidan topilgan ayrim tamg'alar va tasvirlarda tok bargi ramzining uchrashi uzumchilikning qadimiy an'alaridan dalolat beradi[15].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'rta Osiyo, jumladan Xorazm va Movarounnahr hududlarida uzumchilik va vinochilik madaniyatining shakllanish tarixi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishi markazida bo'lib kelgan. Mavzuning qadimiy ildizlari antik va o'rta asr manbalarida o'z aksini topgan: N.N. Negmatov va S.G. Xmel'nitskiyning Shahriston shahriga, shuningdek I.V. Pyankovning O'rta Osiyoning antik geografik an'analardagi tasviriga bag'ishlangan tadqiqotlari[12] mintaqaning qadimgi xo'jalik va dehqonchilik an'analari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Uzumchilik va vinochilikning diniy-mifologik ildizlari I.M. Steblin-Kamenskiy tarjimasidagi "Avesto"da hamda M. Drezdenning qadimgi Eron mifologiyasiga oid tadqiqotida[16]

tahlil qilingan bo'lib, bu manbalar tok va uning mevasiga berilgan muqaddas ma'noni ochib beradi. S.P. Tolstovning "Qadimgi Xorazm" monografiyasi[6] esa Xorazm vohasining sug'orma dehqonchilik tizimini, bog'dorchilik va uzumchilikning rivojlanish sharoitlarini chuqur yoritadi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan Marko Poloning sayohatnomasida[4] mintaq bozorlari va uzum mahsulotlari haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. V.V. Bartoldning mo'g'ullar bosqini davriga oid asari hamda S.G. Agajanovning o'g'uz-turkman tarixiga bag'ishlangan tadqiqoti[2] mo'g'ullar bosqini va undan keyingi davrlarda mintaq xo'jaligiga yetkazilgan zarar hamda uning tiklanish jarayonlarini ko'rsatadi. Mahalliy tarixnavislik an'alaridan Narshaxiyning "Buxoro tarixi" va Hofiz-i Abruning asari[5] Buxoro vohasidagi xo'jalik hayoti, jumladan bog'-rog' va tokzorlarga oid dastlabki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

XVI–XVIII asrlar Buxoro xonligi davriga oid tadqiqotlar orasida P.P. Ivanovning Joybor shayxlari xo'jaligiga bag'ishlangan fundamental asari hamda A. Vamberining Buxoro tarixiga oid tadqiqoti[17] muhim manba bo'lib xizmat qiladi; bu asarlarda bog' va tokzorlarning xo'jalik va soliq tizimidagi o'rni yoritilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston bosib olingan davrga oid N.A. Xalfin va A.I. Dobrosmislovning tadqiqotlari[18] mustamlaka davri ma'muriy-xo'jalik o'zgarishlarini, V.I. Masalskiyning paxta ishi bo'yicha keng qamrovli tadqiqoti[19] esa paxtachilikning ustuvor tarmoqqa aylanish jarayoni hamda uning an'anaviy bog'dorchilik va uzumchilikka ta'sirini ko'rsatadi.

Mavzu uchun bevosita ahamiyatga ega manba sifatida O. Geyfelderning "Вестник виноделия" jurnalidagi vinochilikka bag'ishlangan maqolalari[20] alohida ajralib

turadi: ularda XIX asr oxirida mintaqada vinochilikni tashkil etish tajribasi, texnologik jihatlar va bozor masalalari ko'rib chiqilgan. R.R. Shrederning O'rta Osiyo qishloq xo'jaligiga bag'ishlangan asarlari[10] mintaqa bog'dorchilik va uzumchiligining ilmiy-agrotexnik asoslarini yoritib, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan manbalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik davriga oid manbalar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir farmon va qarorlari[23] alohida ahamiyat kasb etadi; ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, klaster tizimini joriy etish va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish masalalarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining statistik to'plam hamda hisobotlari[13] esa tarmoqning miqdoriy ko'rsatkichlarini dalillash uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tahliliy hamda manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Shuningdek, yozma manbalar, arxeologik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar va statistik materiallar qiyosiy tahlil qilinib, uzumchilik an'analarning Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritildi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda uzumchilik va vinochilik madaniyati antik davrdan boshlanib, bir necha bosqichli rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Eng qadimgi yozma manbalardan biri bo'lgan "Avesto"da dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uzum va undan tayyorlangan mahsulotlar kundalik turmush hamda marosimlarda keng qo'llanilgani qayd etilgan[1], bu esa tarmoqning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-madaniy ahamiyatga ham ega bo'lganini ko'rsatadi. Xorazm vohasidagi Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan arxeologik topilmalar ya'ni xumxonalar, tarapanlar, sopol idishlar va devoriy tasvirlar mintaqada vinochilik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi[6].

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan Marko Polo Samarqand va Buxoro atrofidagi bog' va tokzorlarning keng tarqalganligini qayd etgan[4]. Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr yurishlari natijasida yunon-baqtriya madaniyatining shakllanishi mahalliy vinochilik an'analarga yangi unsurlar olib kirdi[24], xitoylik elchilarning ma'lumotlari esa Farg'ona vodiysida keng tokzorlar mavjudligini tasdiqlaydi[3]. Geopaleontologik va ampelografik tadqiqotlar mintaqada tokchilik madaniyatining kamida olti ming yillik tarixga ega ekanligini ko'rsatadi[12], bu esa tarmoqning mintaqada iqtisodiyoti va madaniy taraqqiyotidagi uzoq muddatli o'rmini tasdiqlaydi. VII–VIII asrlarda arab istilosi va islom dinining yoyilishi natijasida vinochilik faoliyatida tub o'zgarishlar yuz berdi[2]: mast qiluvchi ichimliklar taqiyqlanishi sababli e'tibor mayizbop va xo'raki navlarni yetishtirishga qaratildi, quritilgan uzum, shinni va sirka tayyorlash keng tarqaldi[14]. Shu bilan birga, xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi Farg'ona vodiysidagi tokzorlarning kengayishiga[2] va yangi navlarning Hindiston, Eron, Afg'onistondan olib kelinishiga[25] turtki bo'ldi. O'rta asrlarda tokzorlar Farg'ona, Zarafshon, Toshkent, Xorazm va Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan bo'lib[5], mayiz va shinni kabi mahsulotlar Yaqin Sharq va Volgabo'yi hududlariga eksport qilingan[17].

XIII asr mo'g'ullar istilosi sug'orish tizimi va tokzorlarning vayron bo'lishiga olib kelib, tarmoqning bir

necha asrlik inqirozini keltirib chiqardi. XV asrdan boshlangan qayta tiklanish jarayoni Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida shariat ta'siri ostida davom etdi[26]: vino ishlab chiqarish rasman cheklanib, "Baxtiyoriy", "Obaki", "Buvaki", "Vassarg'a" kabi xo'raki va mayizbop navlar saqlanib qoldi[22].

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilishi tarmoq rivojida tubdan yangi bosqichni boshladi[18]. Rossiya bozorlarida talabning ortishi, Qrim, Moldova va Kavkazortidan vinobop navlarning keltirilishi[11] hamda xususiy sarmoyaning jalb etilishi natijasida sanoatlashuv jadallashdi[21]. 1867-yilda I.I. Pervushin[19] va 1868-yilda D.L. Filatov[20] tomonidan Toshkent va Samarqandda yirik vinochilik korxonalari tashkil etilib, 1908–1913-yillarda korxonalar soni 23 tadan 27 taga yetdi[10]. 1888-yildan konyak ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi[20], mahalliy seleksiya natijasida Xusayni, Bishti, Baxtiyori kabi navlar saqlanib qoldi[27]. 1895-yilda tashkil etilgan Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati va R.R. Shrederning ilmiy faoliyati[28] hamda 1904-yilda Samarqandda ochilgan maxsus o'quv maskani[11] tarmoqning ilmiy asosda rivojlanishiga xizmat qildi. Biroq Birinchi jahon urushi, fuqarolar urushi va keyinchalik 1985–1986-yillardagi alkogolizmga qarshi kampaniya natijasida tarmoq jiddiy zarar ko'rdi.

Mustaqillik yillarida uzumchilikni rivojlantirish davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi: qator farmon va qarorlar qabul qilinib, 2017–2020-yillarda 22,6 ming gektar yangi tokzor barpo etildi va 4,3 ming gektar rekonstruksiya qilindi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikada tokzorlarning umumiy maydoni 120 ming gektarni, shundan hosil beruvchi qismi 98,8 ming gektarni tashkil etib, o'rta hosildorlik gektariga 63,1 sentnerga yetdi. Tarmoqni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar eksport salohiyati va ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minladi, bu esa rasmiy hisobotlarda ham o'z tasdig'ini topgan[13].

Shunday qilib, tahlil natijalari uzumchilik va vinochilik tarmog'i rivojining to'rtta asosiy bosqichini ajratish imkonini beradi: antik-o'rta asr bosqichi (vinochilikning yuksak rivojlanishi), islom davri (yo'nalishning mayizbop navlarga burilishi), Rossiya imperiyasi davri (sanoat asosida rivojlanish) va mustaqillik davri (davlat siyosati asosida zamonaviy rivojlanish). Har bir bosqich o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo va O'zbekistonda uzumchilik an'analari olti ming yildan ortiq tarixga ega ekanligini hamda tarmoq turli tarixiy davrlarda siyosiy, diniy va iqtisodiy omillar ta'sirida rivojlanish va inqiroz bosqichlarini boshdan kechirganini ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida esa davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida uzumchilik zamonaviy rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Tadqiqot asosida mahalliy uzum navlarini genetik resurs sifatida asrash, uzumchilik tarixiga oid arxeologik va yozma manbalarni chuqurroq o'rganish, tarixiy vinochilik tajribasidan zamonaviy ishlab chiqarishda foydalanish hamda davlat tomonidan sohaga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslandi.

Umuman, uzumchilik va vinochilik Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi va agrar taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning tarixini kompleks o'rganish sohaning ilmiy asosda rivojlantirilishi hamda eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Авесто: Яшты / Перевод и комментарии И.М. Стеблин-Каменского. – М.: Наука, 1990. – 344 с.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л.: Изд-во АН СССР, 1927. – 256 с.
3. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Алма-Ата: Гылым, 1998. – Т. 2. – 335 с.
4. Марко Поло. Книга о разнообразии мира / Перевод И.П. Минаева. – СПб.: Азбука-классика, 2009. – 480 с.
5. Наршахи. История Бухары / Перевод Н. Лыкошина. – Ташкент: Тип. при Канц. Туркест. ген.-губ., 1897. – 122 с.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – 452 с.
7. Матмусаев М.М. Ўзбекистонда узумчилик тарихи. – Тошкент: Фан, 2001. – 168 б.
8. Мирзаев Ш.М. Ўзбекистонда боғдорчилик ва узумчилик соҳасининг ривожланиши // Қишлоқ хўжалиги фани ва амалиёти. – 2010. – № 2. – Б. 34–39.
9. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: УМЭД, 2005. – 302 с.
10. Шредер Р.Р. Сельское хозяйство Средней Азии. – Ташкент: Среднеазиатское отделение Всесоюзного общества «Знание», 1926. – 284 с.
11. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Т.: Электрическая типо-лит. О.А. Порцевой, 1912. – С. 245.
12. Негматов Н.Н., Хмельницкий С.Г. Средневековый Шахристан. – Душанбе: Дониш, 1966. – С. 45; Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции. – М.: Восточная литература, 1997. – С. 112.
13. O'zbekiston qishloq xo'jaligi: statistik to'plam. – Т.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2002. – В. 87–89; O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. 2020 yil hisoboti. – Т., 2021. – В. 34.
14. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв. – Ашхабад: Ўлим, 1969. – С. 189; Федоров-Давыдов Г.А. Кочевники Восточной Европы под властью золотоордынских ханов. – М.: МГУ, 1966. – С. 67.
15. Бураков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. – Т.: Фан, 1975. – С. 34–36.
16. Авесто: Яшты / Перевод и комментарии И.М. Стеблин-Каменского. – М.: Наука, 1990. – С. 78; Дрезден М. Мифология древнего Ирана // Мифология древнего мира. – М.: Наука, 1977. – С. 337–365.
17. Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов: к истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI–XVII вв. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1954. – С. 134–136; Вамбери А. История Бухары или Трансоксании с древнейших времён до настоящего. – СПб.: Изд-во А. Траншеля, 1873. – Т. 2. – С. 178–180.
18. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). – М., 1965. – С. 312–315; Добросмыслов А.И. Города Сыр-Дарьинской области. Ташкент. – Т.: Типо-лит. торг. д-ва “Бр. Каменские”, 1912. – С. 178.
19. Масальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии (Туркестан, Закаспийская область, Бухара и Хива) и его будущее. – СПб.: Тип. В. Киршбаума, 1892. – С. 234–235.
20. Гейфельдер О. Виноделие в Средней Азии // Вестник виноделия. – 1895. – № 4. – С. 12–18.
21. Кастальский Б.Н. Очерки по истории хлопководства в Туркестане. – Т.: Средагиз, 1925. – С. 45; Логофет Д.Н. Страна бесправия: Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: 1909. – С. 67.
22. Снесарев А.Е. Афганские уроки. – М.: Воениздат, 1997. – С. 56; Семёнов А.А. Средняя Азия. – М.: 1911. – С. 89.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni; 2019-yil 5-fevraldagi PF-5656-son Farmoni; 2019-yil 11-dekabrda PQ-4549-son Qarori; 2021-yil 28-iyulda PQ-5200-son Qarori.
24. Бонгард-Левин Г.М., Грантовский Э.А. От Скифии до Индии: Древние арии. Мифы и история. – М.: Мысль, 1983. – С. 167; Тарн В. Эллинистическая цивилизация. – М.: Иностранная литература, 1949. – С. 112.
25. Давидович Е.А. История монетного дела Средней Азии XVII–XVIII вв. – Душанбе: Дониш, 1964. – С. 145; Массон М.Е. Прошлое Средней Азии. – Т.: Фан, 1975. – С. 89.
26. Вамбери А. История Бухары или Трансоксании с древнейших времён до настоящего. – СПб.: Изд-во А. Траншеля, 1873. – Т. 2. – С. 178–180.
27. Кауфман К.П. Туркестанский край: сборник материалов для истории его завоевания. – Т.: 1885. – С. 89; Вирский М.М. Опыт военно-статистического обозрения Российской империи. – СПб.: 1848. – С. 45.
28. Шредер Р.Р. Сельское хозяйство Средней Азии. – Т.: Среднеазиатское отделение Всесоюзного общества “Знание”, 1926. – С. 4–6.